

OILA QONUNCHILIGIDA TENGLIK TAMOYILI

Chuboyeva Ozodaxon

NamDU yuridik fakul'teti katta o'qituvchisi

Chuboyeva Gulnora

Namangan viloyat IIB xodimi

Annotatsiya: *Maqolada oila qonunchiligidagi tenglik tamoyili huquqiy asoslanishi, jamiyatdagi har qanday qusur va kamchiliklarning ildizini aksar hollarda oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitidan izlash nechog'li o'zini oqlagani kabi kuchli, barqaror hamda farovon davlat tizimi negizini ham, avvalo, mustahkam oilalar tashkil etishini bugun tobora chuqur anglab yetayotganimiz yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *oila, qonunchilik, tenglik tamoyili, islohotlar, jamiyat, oila institutlari, gender.*

Oila kishilik jamiyatni wivilizatsiyasi barcha davrlarida erkak va ayolning teng huquqliligi asosida shakllangan va butun jamiyatni tarbiyalash makoni hisoblanadi.

Qonunlarimizda oila mustahkamligi huquqiy asoslari, oilada erkak va ayolning teng huquqlarga egaligi mustahkamlangan. Milliy qonunchiligidagi tenglik tamoyili xalqaro huquqiy standartlar asisda qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar⁴⁸», deb belgilangan. Demak, gender tengligining ham xalqaro huquqiy ham, milliy konstitutsiyaviy huquqiy asosi kafolatlangan. Gender tengligi ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Demokratik davlatda xalq farovonligida, jamiyat tinchligida hamda iqtisodiy barqarorlikda erkak va ayolning teng huquqliligi muhim o'rinni tutadi. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha davlat miqyosida ishlab chiqilgan qonunlar va dasturlar ham muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston uchinchi renesansi davrida oilaviy tenglik masalasiga ham yangi huquqiy munosabat shakllandi.

2018 yil 2 fevraldagagi “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash” va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni zamirida ham, asosan, ana shu maqsadlar o‘z ifodasini topgan.

Mazkur Farmon bilan “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazining yagona tizim sifatida Vazirlar Mahkamasining huzurida tashkil etilgani bugungi shiddatkor globallashuv jarayonida axborotlashgan oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida muhofaza qilish hamda mustahkamlashga muhtoj ekani va har qanday davlatning istiqboli oila mustahkamligi bilan chambarchas bog‘liqligini yaqqol tasdiqlab turibdi.

Davlat hamda jamoat tashkilotlari, parlament, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini O'zbekiston oilalarini mustahkamlash yagona g‘oyasi atrofida birlashtirgan mutlaqo yangidan shakllantirilgan “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazilari asosiy vazifasini tashkil etdi.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., “O'zbekiston” nashriyoti. 2021., -b 9

2019-yil 2-sentyabrdagi "Ayollarni zulm va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni ta'qib va zo'ravonlik qurbanlarining huquqlarini belgilab beradi, shuningdek, ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini olib beradi.

O'zbekistonda 2019 yilning 2 sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi qonuni mamlakatimizda gender tengligini ta'minlashga qaratilgan. Bu qonun mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan yaxlit va asosiy qonun hujjati hisoblanadi. Ushbu qonun bilan ilk bor milliy qonunchiligidan «gender» tushunchasiga ta'rif berilgan.

2022 yil 1 martda Shavkat Mirziyoev raisligida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yangi bosqichga ko'tarish va ayollarning jamiyatdagi o'rnimi yanada yuksaltirish hamda mustahkamlashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilganligi ayollarni qo'llab quvvatlash borasidagi siyosatning yangi bosqichidir.

«Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham ayollarga munosib sharoit yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash masalasini eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida bejizga belgilamadik. Ushbu muhim vazifalar ijrosini tizimli tarzda har bir mahalla kesimida amalga oshirishni ta'minlash maqsadida bugun **Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasini tashkil etish bo'yicha farmonni imzoladim**», — dedi Shavkat Mirziyoev⁴⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи PF-87-son farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oirish bo'yicha Milliy dasturni 2022-2023-yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasining 6- bandida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari belgilandi.

2022 yil 25 aprel Oliy Majlis Senati Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik, va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan yosh yigit-qizlar o'rtasida «Gender tenglik yetakchisi» jamoasi shakllantirildi.

Buning asosiy sababi, jamiyatda gender tengligini ta'minlash bo'yicha davlat miqyosida ishlab chiqilgan qonunlar va dasturlar to'laqonli ishlamayapganligidir.

Erta nikohlarning jamiyatimizda kuzatilayotgani, har yili ajralishlar soni 10-11%dan oshib borayotgani, ayollar jinoyatchiligi, voyaga yetmaganlar nazoratsizligi hamda huquqburziligi ko'p uchrayotgani, afsuski, ayni haqiqatdir. Bunday noxush manzaralarga uzilkesil chek qo'yish va ularning oldini olish uchun, albatta, oilalar bilan ishlash tizimiga hayotiy, samarador mexanizmlarni joriy qilish zamon talabiga aylandi. Lekin ayrim shoshma shosharlik bilan ajrashayotgan oilalarga qarata "to'xtang, sabr qiling, farzandlar tirik etim bo'lmasin" deya hayqirgim keladi. Rivoyatning birida: "Ayol kishi qovurg'adan yaralgandir. U sen uchun bir yo'lda mustqim turmas. Agar sen undan egriligidcha huzurlansang, huzurlanib qolding. Agar uni to'grilayman desang, sindirasen. Uning sinishi talog'dir deyilgan. Ayibsiz inson yo'q ayol kishi tez va ta'sirchan bo'ladi. Ayol kishi o'z jinsga mos keladigan mashaqattlardan erkak kishi ko'tara olmaydigan 100 va undan ortiq narsani ko'tara olishi mumkin, ammo o'ziga xos bo'limgan qiyinchilik, xos bo'limgan salgina qo'pol muomila, bir

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 26 февраль куни хотин-қизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва уларни ижтимоий кўллаб-куvvatlash масалалари мухокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши материаллари

og'iz noqulay so'zni ko'tara olmasligi aniq. Shuning uchun ham xalqimizda "ayol kishi yaxshi so'zning gadosi" deb yuritiladi. Mu'omila chiroyli bo'lganda oilada urush janjallar kamayib oilaning ajrim havfi yo'qoladi. Binobarin, davlatimiz rahbarining xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borayotgan siyosati, ayollarga yaratilayotgan madaniy sharoitlar ularning hayot tarzini tubdan o'zgartirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas⁵⁰.

Olib borilayotgan ijobjiy o'zgarishlarga qaramay xotin-qizlar o'rtasidagi muammolarga to'la yechim mayjud emas. Ayniqsa oila va nikox masalalarida bu holat ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, nikoh erkinligi ajralib ketish erkinligini ham ko'zda tutadi. Vaqt o'tishi bilan tashkil topgan nikohlarning bir qismi er yoki xotinning vafoti tufayli, yana bir qismi esa turli xil kelishmovchiliklar sababli bekor qilinadi. 2018 yil Qoraqalpog'istonda 1344 ta nikoh ahdi bekor qilindi. Ajralishlarning 61,5 foizi shahar aholisiga, 38,5 foizi esa qishloq aholisiga to'g'ri keldi⁵¹.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqalpog'istonda 1991-2018 - yillar orasida nikohni bekor qilish hollari 129 foizga ortgan. 1991 yilda ajralishlar soni 1042 tani tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 1344 tani tashkil etdi. Har 1000 ta aholiga nisbatan nikoh ahndini bekor qilish deyarli o'zgarmadi.

2018 yilda tuzilgan har 1000 ta oila hisobiga o'sha yilning o'zida 93 ta oila ajralib ketdi. Bekor qilingan nikoh ahddarining asosiy qismini bir necha yil avval nikohlanganlar tashkil etadi. Umuman, oila qurishdag'i ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yetukligining past darajadaligi oilalarning muvoffaqiyatlari yashab ketishida bir qancha muammolarni yuzaga keltirib va nolik oilalarning paydo bo'lishiga sabab bo'limoqda.

Bu kabi raqamlarni deyarli barcha statistik sohalarda ko'ryapmiz.

Xotin-qizlar masalalari muhim masala sifatida rivojlangan davlatlarda ayollarga va oilaga bo'lgan ijobjiy va bizni sharqona mentalitetimizga mos davlatlar tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Koreya Respublikasining Oila va xotin-qizlar vazirligi faoliyat doirasi diqqat markazidagi yo'nalish va vazifalar ko'lami keng va ko'p tarmoqli ekanligini kuzatish mumkin.

Mamlakatimizda xalqaro huquq ustuvorligi tan olingan. Sharq davlatlarining insonparvarlik tamoyillari e'tirof etiladi.

Sharq mamlakatlarida olib borilayotgan oila va xotin-qizlarni qo'llab quvvatlashga oid ijobjiy tajribada kelib chiqib, O'zbekistonda ham Oila va xotin-qizlar vazirligi tashkil etilishi maqsadga muvofiq

⁵⁰ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – B. 13

⁵¹ Джумабаева Шоира. Ўзбекистон ракамларда Qoraqalpog'istonda nikoh-oila munosabatlarining ijtimoiy-demografik omillari. "Oila institutining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va oila mustahkamligini ta'minlash omillari" mavzusida onlayn Respublika ilmiy-amaliy anjumani Namangan. 2019 yil. 1991-2018. Статистик тўпламлари.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi., "O'zbekiston" nashriyoti. 2021., -b 9

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini
birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, 2016. - B. 13

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигига 26
февраль куни хотин-қизларнинг муаммоларини ҳал қилиш ва уларни ижтимоий
кўллаб-қувватлаш масалалари мухокамаси юзасидан видеоселектор йиғилиши
материаллари

4. Ўзбекистон рақамларда 1991-2018. Статистик тўпламлари

5. Джумабаева Шоира. Ўзбекистон рақамларда Qoraqolpog'istonda nikoh-oila
munosabatlarining ijtimoiy-demografik omillari OILA INSTITUNING IJTIMOIY
TARAQQIYOTDAGI O'RNI VA OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLASH
OMILLARI. Namangan. 2019 yil. 1991-2018. Статистик тўпламлари.

6. Ozodaxon Chuboyeva Quvonchbekovna "O'ZBEKİSTONDA MILLATLARARO
TOTUVLIKNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI".
PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS / 2022 - PART 10 / Б.1-4

7. Ozodaxon Chuboyeva Quvonchbekovna . The importance of "Kazilik adabi" in Abu
Bakr Kasani's work " Badoi-us-sanoe". International Scientific Journal ISJ Theoretical&
Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 81 published January 30, 2020